

Oziq-ovqat plyonkasi bozori 11,8 mlrd dollarga baholanmoqda

// 17.02.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/oziq-ovqat-plyonkasi-bozori-11-8-mlrd-dollarga-baholanmoqda>



2025-yil boshida jahon oziq-ovqat plyonkasi bozorining hajmi 11,8 milliard dollarga baholanmoqda. 2030-yilda prognoz davrida o'rtacha 4,35 foiz o'sish sur'ati bilan 14,6 milliard dollarga yetishi mumkin. Bu haqda Mordor Intelligence kompaniyasining so'nggi tadqiqotida ma'lum qilingan.

Oziq-ovqat va ichimliklar sektori o'sishning asosiy drayveri bo'lib qolmoqda. Bunda so'nggi yillarda sanoatda barqaror qadoqlash yechimlari tomon sezilarli siljish bo'ldi, ko'plab ishlab chiqaruvchilar muqobil, "biologik", qayta ishlanadigan materiallarni ishlab chiqmoqda.

Oziq-ovqat plyonkalari uchun eng katta bozorlar - Yevropa va Shimoliy Amerika. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ushbu bozor tez o'sib bormoqda. Bu jadal sanoatlashtirish va urbanizatsiya, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sohasining kengayishi va chakana savdo infratuzilmasining o'sishi bilan bog'liq.

Mintaqada Xitoy yetakchi bo'lib qolmoqda, undan keyin Hindiston va Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bozor rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati